

BOSHLANGICH SINIF ONA TILI DARSIGA KREATIV YONDASHTIRISH  
USULLARI

Ahmadjonova Ozoda

*Namangan davlat pedagogika instituti 1 kurs Magistranti.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslariga kreativ yondashishning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Innovatsion ta'lim, ta'lim-tarbiya, ona tili, kreativlik, rag'batlantirish, boshlang'ich sinf, metod.*

Tez yangilanib rivoj topayotgan zamonamiz eng avvalo innovatsiyaga ega axborot, yangi texnologiyalar yaratish, qadriyatli ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, inson resurslaridan keng va oqilona foydalanish payti kelganidan darak beradi. Yangi axborotni maqsadli tezda qabul etish, oydinlashtirish, tahlil asosida amaliyotda qo'llash, tafakkurdagi sintez, solishtirish, abstraktlash, konkretlashtirish kabi jarayonlarni ishga solib innovatsiyalar yaratishga harakat etish, ularni jahon bozoriga chiqarish har bir ijodiy faoliyat ko'rsatib kelayotgan shaxsdan muayyan tafakkur haqidagi bilimlar, malakalar, ko'nikmalarni rivojini talab etadi. XXI - asr ta'lim-tarbiyasi o'qituvchining yuqori darajadagi bilimlari, malakalari, ko'nikmalari, shaxsiy sifat, xislatlari bilan bog'liq. Hozirgi globallashuv jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning intellektual qobiliyatlarini o'stirish orqali unda mavjud axborotlar oqimini qabul qilish, tushunish, fikrlash va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jahon pedagogik amaliyotida o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, fan asoslarini o'zlashtirish va mustaqil bilish faoliyatini rag'batlantirish omili sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda kerativ fikrlashini rivojlantirishning innovatsion-didaktik tizimini, Life Skills (hayotiy ko'nikmalar)ga asoslangan kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda kerativ fikrlashini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz ushbu maqolada "Kreativlik" haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, bu termini fanga kirib kelishi bilan tanishsak. Kreativlik so'zi ilk bor 1922-yilda AQSh olimi D. Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik- bu insonning noodatiy g'oya, fikr bera olish, muammolarni takrorlanmas, original yechimini topish, tafakkurning an'anaviy shakllaridan voz kecha olishga bo'lgan qobiliyatidir. Rodjers (1944) kreativlik deb muammolarni yangi yechimi va biror narsa, voqea, xolatni ifoda etishning yangi usullarini aniqlashni tushunadi. Kreativlik - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi

o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmning bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmazlik lozim. Bizningcha, o'quv vaziyati ta'lim jarayonini tashkil qiluvchi o'zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligi;
- o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan hamkorligi.

Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror bo'lib, 1-sinf o'quvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda o'quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O'quvchilarga rasmi topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqini o'stirib, lug'at boyligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining topqirligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o'stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi:

“Kungaboqar” metodi. Kungaboqar rasmi o'rtasida ova ununilari, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo'ladi. O'quvchilar undosh va bitta unli harflarni qo'shib, bir necha so'zlar tuzishadi. O'yin davomida o'rtadagi unilarni almashtirish ham mumkin. O'quvchilar mustaqil ravishda daftarlariga tuzgan so'zlarini yozadilar. Bu jarayonda hamma o'quvchilar baravar ishtirok etishadi. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida eng faol qatnashganlarni rag'batlantirib, baholab boradi. Ushbu usuldan yozuv darslarida ham, alifbe darslarida ham foydalanishimiz mumkin. O'quvchi qancha ko'p harf o'rgansa shu harflarni qo'shib so'z yasay oladi. Birinchi va ikkinchi kungaboqarda berilgan harflardan shunday so'zlar yasashimiz mumkin. Masalan: olam, olcha, ota, osmon, usta, uka, uxla. Alifbe darслиgi tugagandan so'ng 1-sinf ona tili kitobida dastlab o'quvchilarga “Tovush va harf” haqida ma'lumotlar beriladi. Mavzular sekin-asta murakkablashib boradi. Bu holat muayyan qiyinchilik tug'dirib, biroz bo'lsa-da o'quvchilarning darsdan zerikishiga sabab bo'ladi. Shunday holatlarda interaktiv metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Yuqorida ko'rsatilgan kungaboqar metodimiz ham bunga yaqqol misol bo'ladi. “Tovush va harf” bo'limining dastlabki mashqlari ham o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirish uchun berilgan. Ushbu metod orqali darsni mustahkamlash mumkin. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o'quvchilarning toliqib qolishlarining oldini olish va qisqa vaqt davomida ko'proq o'quvchilarni baholashga xizmat qiladi.

“Sinkveyn” metodi. Sinkveyn so'zining ma'nosi “beshlik” bo'lib, “Qofiyalanmagan besh qatorlik she'r” degan ma'noni anglatadi. O'quvchilar “Sinkveyn” metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat she'r yozadilar. Bunga ko'ra birinchi qator bitta so'zdan iborat bo'lishi va bu ot so'z turkumiga oid so'z bo'lishi, ikkinchi qator ikkita so'zdan iborat bo'lishi va bu sifat so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, uchinchi qator uchta so'zdan iborat bo'lishi va bu fe'l so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, to'rtinchi qatorda to'liq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordagi so'zga sinonim bo'lgan bir so'z qo'yilishi mumkin. Ushbu metoddan 2-3-sinflarga o'tgandan keyin o'quvchilar so'z turkumlari haqida

tushunchalarga ega bo'lganlaridan so'ng foydalanishi mumkin. 2-sinf ona tili darsligida so'z bo'limida shaxs va narsaning nomini, harakatini, belgisini, sanoq va tartibini bildirgan so'zlar haqida ilk morfologik tushunchalar berilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishini belgilovchi ko'plab omillar orasida ona tili darslarida mashqlarni o'zlashtirish jarayonida bolada kreativ fikrlash, tasavvur, tafakkur, muloqot qobiliyatlari ham rivojlanishi mumkin. Bu jarayonda bola va o'qituvchi birgalikda bolaning aniq kreativ fikrlashiga bo'ysunadigan ochiq muammolar tizimiga aylanadi. Bu jarayon yosh o'quvchi uchun qulay bo'lgan shakllarda amalga oshirilishi kerak. Ushbu nazariya doirasida kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi metodlardan samarali foydalanish, darsning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, bu o'qituvchi tomonidan pedagogik ssenariyning yaratilishi va yosh o'quvchilar tomonidan ijodiy faoliyat jarayonida yangi harakatlarning indikativ asosini o'zlashtirilishi bilan belgilanadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarni o'tkazish, tashkil etishda, kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar quydagilar:

**Bostirib kirish metodi.** Bu mashqlarning har xil turlarini bir vaqtning o'zida idrok etishdan iborat. Bu usul yaxlit badiiy matnни yaratishga, ma'lumotni yanada to'liq o'zlashtirishga hissa qo'shadi, tovush, so'z olamiga chuqur kirib borishi tufayli jonli hissiy va hissiy javobni uyg'otadi.

**Qarama-qarshilik metodi.** U turli mashqlardagi vazifalarning qaramaqarshiligi tarzida olib boriladi. Qarama-qarshilik metodi vazifalarni qarama-qarshi qo'yish, o'quvchilarda qiziqishni uyg'otishga imkon beradi, hissiy javob berishning namoyon bo'lishini faollashtiradi. Har bir dars uchun o'qituvchi yosh o'quvchilarda atrofdagi dunyoga qiziqishni shakllantirishga yordam beradigan shunday diapazonni tanlashi kerak bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o'rganiladigan til materiallarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri qo'llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko'p qo'llansa, o'quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O,,zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O,,zbekiston", 2016 yil, 56 bet
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma.- Toshkent 2015,40 bet;
4. G'afforova T., Shodmonova E., Eshturdiyeva T. Ona tili. 1-sinf uchun darslik.
5. Qosimova K, Fuzailov S, Ne'matova A. Ona tili.